

ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERG IJODIDA INSON VA ZAMON FALSAFASI

Nurmaxmatova Firuza Rasulovna

O'zbekiston Davlat Jahon tillari

Universiteti Ingliz filologiyasi

Fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Aleksandr Arkadevich Faynberg(1939-2009) o'zbek adabiyotining yorqin vakili bo'lib,o'zining chuqur falsafiy tafakkur bilan hurmat qozongan hamda she'riyat,nasr va dramaturgiyada inson ruhiyatini kuchli badiiy tasvirlar bilan yoritib bera olgan.Uning asarlari markaziy g'oyasini inson va zamon o'rtasidagi mushkul munosabatlar,hayot o'tkinchiligi va ma'naviy yuksalishga bo'lgan to'xtovsiz izlanishlar tashkil etadi.Faynberg asarlarida inson o'z davrining mahsuli sifatida emas,balki o'z zamonasi tuzumini anglay oladigan va unga bevosita o'z ta'sirini o'tkaza oladigan ma'naviy shaxs sifatida talqin etiladi.

Kalit so'zlar: inson,zamon,tarix,xotira,ruhiy sinovlar,jasorat,hayot oqimi, «Qandahorda kuyganlar», «Ko'k osmon ostida», «Mening bolaligimning ko'chalari».

Faynberg asarlarida ,xoh she'r bo'lsin xoh nasriy asar, insonning zamon bilan ayovsiz kurashi,zamonning o'tkinchi ekanligi,tarix va xotira masalalari dolzarb ravishda muhokama qilinganini va bu masalalarga malsafiy yondashuv bilan fikr berilganini ko'ramiz.Ijodkor uchun zamon- shunchaki vaqt o'lchovi emas,insonning o'zini sinovdan o'tkazadigan kuchdir.»Zamon bizni o'zgartiradi,ammo ba'zan biz ham zamonni o'zgartirishga majburmiz.» Mana shu falsafiy yondashuv Faynbergning ko'plab asarlari,shu jumladan «Ko'k osmon ostida»,»Qaynoq quyosh ostida»,»Mening bolaligimning ko'chalari» kabi asarlar tub mohiyatini tashkil etadi va ularda o'z aksini topadi.Har bir asarida muallif insonni o'z davrining ijtimoiy,axloqiy va ruhiy sinovlari qarshisida tahlil qiladi.

«Mening bolaligimning ko'chalari» asari Faynbergning o'z hayotiy kechinmalariga asoslangan nasrdir.Asar qahramoni bo'lmish o'z bolaligi o'tgan ko'chalarga qaytgan shoir o'sha suronli davrlar o'tganini bo'lsa-da, xotira uni ruhiy jihatdan saqlab turganini anglaydi: «Men bolaligimga qaytmoqchi emasman.U allaqachon men bilan, yuragimda yashaydi.» Ushbu satrda muallif zamonning o'tkinchiligi bilan insonning ruhiy abadiyligini qarama-qarshi qo'yganini sezamiz.Inson zamon o'tishi bilan o'zgarishi mumkin,biroq xotiralar uning qalbida mangu muhrlanadi.

«Qandahorda kuyganlar» ssenariysida ijodkor urushni insonni sinovdan o'tkazuvchi vosita sifatida yoritadi.Qahramonlari hayoti orqali u insonni ruhiy

jasorat, vijdon va mehr bilan o'ldaydi.»Urush odamni yomonlikka o'rgatmaydi, agar u yuragida insoniylikni saqlab qolsa.» Bu satrlarda Faynbergning insonparvarlik falsafasi namoyon bo'ladi. U zamonni tandid ostiga oladi, ammo insonni faqat yovuzlikdan emas, sovuqqonlik va beparvolikdan saqlanishga davat etadi.

«Ko'k osmon ostida» asarida inson va zamonning ruhiy kurashi o'z ifodasini topadi. Unda zamonning inson ruhiga ta'siri, yolg'izlik, orzular va sadoqat masalani ko'rishimiz mumkin. Faynberg asarlari qahramonlari o'sha davrning oddiy insonlari bo'lishiga qaramasdan, ularning har biri ichki dunyosida murakkab falsafiy kechinmalarni boshdan kechradi: «Ko'k osmon ostida ham odam yuragi qorayishi mumkin, agar u muhabbatni unutsa.» Ushbu misralardan shuni anglashimiz mumkinki, zamonni o'zgartiruvchi kuch inson qalbida yashirin.

Faynberg asarlarida zamon ko'p ma'noli tushunchadir. Bu so'z shoir asarlarida hayot oqimi, taqdir, jamiyatdagi o'zgarishlar singari ma'nolarni anglatib keladi. Ijodkor falsafiy qarashlariga ko'ra inson qila oladiga eng katta g'alaba bu- zamon befarqligiga qarshi turib, qalbdagi insoniylikni saqlab qolish.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Faynberg o'z asarlari orqali insonni o'zligini unutmaslikka, zamon bosimiga qaramay, ezgulik va muhabbatni saqlashga chorlaydi. Uning asarlarida inson o'tkinchi zamon ichida abadiyatni his qiluvchi mavjudot sifatida ko'ratiladi. Balki, shu sababdan ham uning asarlari vaqt o'tsa ham o'z qiymatini yo'qotmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Faynberg, A.A. Tanlangan asarlari. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
2. Faynberg, A.A. Mening bolaligimning ko'chalari. - Toshkent: Sharq, 1999.
3. Faynberg, A.A. Qandahorda kuyganlar. - Toshkent, 1988.
4. Karimov, N. O'zbek adabiyotida lirizm va zamon muammosi. - toshkent; fan, 2001.
5. Ziyouz.com